

Surxondaryoda viloyat hokimligi bog'i tashkil etilmoqda. Viloyat hokimi To'ra Bobolov birinchi ko'chatni ekdi.



Respublikamiz bo'y lab o'tkazilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi "Dolzarb 40 kunlik" aksiyasi doirasida ishlar Surxondaryo viloyatida qizg'in davom etmoqda. Unda viloyatdagi nuroniyalar, yoshlar hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari va keng jamoatchilik faol ishtirok etmoqda.

E'tiborlisi, vohadagi foydalanishdan chiqqan yerlarda viloyat sektor rahbarlari boshchiligidagi, viloyat hokimligi, viloyat prokururasi, viloyat IIB hamda viloyat DSBning mevali bog'lari tashkil etilmoqda.

Bugun, viloyat hokimligi uchun ajratilgan Angor tumani Kattaqum mahallasi hududidagi 4 hektar foydalanishdan chiqqan yer maydonida mevali bog' tashkil etilib, viloyat hokimligi xodimlari tomonidan 2000 dona o'rik ko'chatlari ekildi.

Mevali bog'da viloyat hokimi To'ra Bobolov hamda viloyat prokurori Sadriddin Turdiyevlar dastlabki ko'chatlarni ekishdi.

Ma'lumot o'rnila, viloyatda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 16 million, shu jumladan, kuz oylarida 6 million tup mevali va manzarali daraxt va buta ko'chatlari ekish rejalashtirilgan bo'lib, 2 million 117 mingga yaqini ekip bo'lindi. Bugunning o'zida vohada 164 ming 500 dan ziyod daraxt ekildi.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati